

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISH
HOLATLARINI NAMOYON BO'LIH XUSUSIYATLARI**

Abduxakimova Sevara Sherali qizi

Xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi magistranti

abduxakimovasevara1508@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish holatlarining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalardagi xavotirlanishning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar — oilaviy muhit, tarbiyaviy yondashuvlar, tashqi va ichki psixologik faktorlar yoritilgan. Shuningdek, “Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash” metodikasi asosida tajriba va nazorat guruhlaridagi bolalar o'rtasida olingan natijalar tahlil etilib, statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmagan. Maqolada xavotirlanishni aniqlashda kompleks yondashuvning zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, xavotirlanish, psixologik tahlil, tajriba guruhi, diagnostika, ota-ona ta'siri.

**ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Абдухакимова Севара Шерали кизи

Международный Северный Университет, Педагогика и Психология
Студент магистратуры

abduxakimovasevara1508@gmail.com

Аннотация: в статье анализируются психологические особенности тревожности у детей дошкольного возраста. Выделены факторы, влияющие на формирование тревожности у детей, – семейная обстановка, воспитательные подходы, внешние и внутренние психологические факторы. Также на основе методики «Определение уровня тревожности у детей» были проанализированы полученные результаты между детьми

экспериментальной и контрольной групп, и статистически значимых различий не выявлено. В статье подчеркивается необходимость комплексного подхода к выявлению тревожности.

Ключевые слова: дошкольный возраст, тревожность, психологический анализ, экспериментальная группа, диагностика, родительское влияние.

FEATURES OF THE MANIFESTATION OF ANXIETY IN PRESCHOOL CHILDREN

Abdukhakimova Sevara Sherali kizi

International Nordic University, Master's student in Pedagogy and Psychology
 abdukhakimovasevara1508@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the psychological characteristics of anxiety in preschool children. Factors influencing the formation of anxiety in children - family environment, educational approaches, external and internal psychological factors - are highlighted. Also, based on the methodology "Determining the level of anxiety in children", the results obtained between children in the experimental and control groups were analyzed, and no statistically significant differences were observed. The article emphasizes the need for a comprehensive approach to identifying anxiety.*

Keywords: *preschool age, anxiety, psychological analysis, experimental group, diagnostics, parental influence.*

Maktabgacha ta'lim bolalarning ilk tarbiyaviy tajribalarini shakllantirish, ularning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta'minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta'lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida turli qonunlar, farmonlar va loyihalar ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim sohasining rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biri boʻlib, bolalarning barkamol oʻsishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Shu sababli, mazkur huquqiy hujjatlar maktabgacha taʼlim jarayonining huquqiy asoslarini belgilab, uning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish ikki asosiy yoʻnalishda shakllanadi: birinchisi – bolaning shaxsiy hayotiy tajribasi natijasida hosil boʻlgan qoʻrquvlar; ikkinchisi esa – atrof-muhit, ayniqsa ota-onalar yoki tarbiyachilar orqali bilvosita singdirilgan tashvish va xavotirlar. R. Perets-Lange va P. Myuntenyerning fikricha, aynan ikkinchi – tashqi manbadan kelib chiqadigan xavotir holatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda koʻproq uchraydi. Ular ota-onalarning oʻzlarida mavjud xavotirlar va tashvishlarni bilmasdan bolaga singdirishlari muhim rol oʻynashini taʼkidlashadi.

Bu fikrni K.I. Ip, E.L. Miller, M. Karasava, X. Xirabayasi, M. Kazama, Li Van, Sh.L. Olson, D. Kessler hamda T. Tardif kabi olimlar ham qoʻllab-quvvatlaydi. Ularning fikricha, ota-onalar odatda bolalarni ataylab xavotirga solishni maqsad qilmasalar-da, bolalar baʼzi holatlarni ortiqcha tashvish bilan qabul qilib, ota-onaning ichki kechinmalarini oʻzlariga xos tarzda qabul qilishlari mumkin. Bu esa bolalarda yangi, mustaqil ravishda shakllanayotgan xavotir holatlarining paydo boʻlishiga sabab boʻladi.

Shuningdek, F. Chen, I. Van, Ts. Chjao va S. Vu tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, xavotir faqat tashqi omillar bilan emas, balki bolaning ichki, individual xususiyatlari – masalan, ortib borayotgan tashvish darajasi orqali ham kuchayadi. Ushbu holatlar bolaning xatti-harakatlarida salbiy oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin: u doimiy yordam kutadi, mustaqil qaror qabul

qilishda qiyinchilikka uchraydi, tashabbus ko'rsatmaydi, yangi voqeliklardan cho'chiydi va tashqi muhitga haddan ortiq bog'lanib qoladi.

B. Syao va R. J. Koplan o'z tadqiqotlarida bolalarning moslashuvchanlik qobiliyatlari pasayishini empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlagan. S. Laletos va M. Xasin esa, xavotirga moyillik bolalar salomatligining yomonlashishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, qo'rquvlar ko'pincha tez-tez somatik va yuqumli kasalliklarga chalinadigan bolalar guruhida ko'proq uchraydi.

O'zbekistonlik psixologlar, jumladan, Qodirova va Nuriddinovning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish holatlari asosan oiladagi psixologik muhit, tarbiyadagi haddan ortiq qat'iylik yoki e'tiborsizlik, shuningdek, bolalarga nisbatan yuqori talablar qo'yilishi bilan bog'liq ekani qayd etilgan. Ularning fikricha, bola o'zini xavfsiz his qilmagan muhitda xavotirlanish ehtimoli ortadi. Psixologlar bu holatni aniqlashda bir nechta metodlardan, xususan, "Xavotirlanish darajasini aniqlash testi", rasm asosidagi testlar va proektiv texnikalardan foydalanganlar. Ushbu metodikalar bolalarning ichki kechinmalari, qo'rquvlari va tashvishlarini aniqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqotchilarning umumiy xulosasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalardagi xavotirlanish holatlari ko'pincha oiladagi munosabatlar, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi va bolalarning ijtimoiy muhit bilan bo'lgan ilk aloqalariga bog'liq. M.Xoshimova o'z tadqiqotlarida bolalarning emotsional rivojlanish jarayoni va uning ijtimoiy moslashuvdagi o'rni haqida tahliliy yondashuvni ilgari surgan. S.Ubaydullaeva esa bolalardagi xavotir holatlarini erta aniqlashga qaratilgan psixologik metodikani ishlab chiqqan. T.Abdullaeva tomonidan

maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik portretini tuzish bo'yicha metodik yondashuv ishlab chiqilgan.

Z.A. Mahkamova esa o'z izlanishlarida bolalarning xavotirlanishga moyilligi ularning individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatgan. U bolalar xarakteri, oiladagi tarbiya va pedagog bilan munosabatlar xavotir darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Sh.X. Raximov bolalarning emotsional holati, o'z-o'zini anglash darajasi va tashvishlanishga moyilligi kabi psixik rivojlanish jihatlarini chuqur o'rganib, psixologik-pedagogik muhit bilan oilaviy omillar boladagi xavotirlanish holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

5–6 yoshli bolalarda shaxsiy va vaziyatga doir xavotirlanish darajasi R. Temml, M. Dorki, V. Amen tomonidan ishlab chiqilgan “Bolalardagi xavotirlanish darajasini aniqlovchi” metodika orqali o'rganildi. Tadqiqot jarayonida katta maktabgacha yoshdagi jami 80 nafar bola ishtirok etdi, ularning 34 nafari qizlar, 46 nafari o'g'il bolalardan iborat edi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida xavotirlanish darajasi gender jihatdan o'ziga xos farqlarga ega: o'g'il bolalarda xavotirlanish darajasi qiz bolalarga nisbatan biroz yuqoriroq bo'ldi. Ya'ni, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 38,5 % ni, qizlarda esa 32,4 % ni tashkil etdi. Ushbu tafovutni, ehtimol, jamiyatda shakllangan “o'g'il bola qo'rqmas, jasur bo'lishi kerak” degan stereotiplarga bolalarning hali to'liq moslasha olmasligi bilan izohlash mumkin.

Xavotirlanish darajasi yuqori bo'lgan bolalarda tengdoshlar yoki kattalar bilan o'zaro munosabatda qiyinchiliklar, o'ziga past baho berish,

muvaffaqiyatsizlikka nisbatan sezgirlik va keskin muomala bo'lganda ayrim faoliyatlardan chekinish holatlari kuzatildi.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida bolalarning xavotirlanish darajasini aniqlash maqsadida R. Temml, M. Dorki, V. Amen metodikasi eksperimental va nazorat guruhlarida ishtirokida qo'llandi. Dastlabki bosqichda eksperimental guruh tarkibida 41 nafar bola bo'lib, ularda "Shaxsga doir xavotirlanish" o'rtacha ko'rsatkichi 2,8 ballni tashkil etdi. Nazorat guruhidagi 39 nafar bolaning ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha natijasi esa 2,7 ballni tashkil etdi. Metodika sinalluvchilar guruhida o'tkazilib olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash metodidan olingan natijalar farqlari (Styudent t-mezoni)

Shkala Guruh n O'rtacha qiymat Dispersiya t

Shaxsga doir xavotirlanish

Tajriba guruhi 41 2,8 0,76 0,06

Nazorat guruhi 39 2,7 0,84

Vaziyatga doir xavotirlanish

Tajriba guruhi 41 2,75 0,78 0,29

Nazorat guruhi 39 2,68 0,77

O'tkazilgan tadqiqotda R.Temml, M.Dorki va V.Amenlar tomonidan ishlab chiqilgan "Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi yordamida tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida shaxsga doir hamda vaziyatga doir xavotirlanish darajalari taqqoslab chiqildi. Styudent t-mezoni orqali olingan statistik natijalarga ko'ra, ikki guruh o'rtasidagi farq $t=0,06$ va $t=0,29$ bo'lishiga qaramay, $p>0,05$

qiymati tufayli u statistik jihatdan ahamiyatli emas deb baholandi. Ushbu holat bir nechta muhim omillar bilan izohlanishi mumkin.

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy-irodaviy rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lganliklari sababli, ulardagi xavotirlanish holatlari hali barqaror shakllanmagan va tabiiy psixologik rivojlanishning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar (ya'ni ball orqali baholanadigan testlar) bolalarning yashirin va noverbal psixik holatlarini to'liq aniqlashga qodir emas. Uchinchi muhim omil — tajriba va nazorat guruhlarini ijtimoiy va muhit omillari jihatidan bir-biriga juda o'xshash bo'lishi sababli ular orasida keskin farqni kutish o'zi noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Shuningdek, "Vaziyatga doir xavotirlanish" shkalasida ham tajriba guruhida o'rtacha ko'rsatkich 2,75 ballni, nazorat guruhida esa 2,68 ballni tashkil qilgan bo'lsa-da, bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emas deb baholandi ($p > 0,05$; $t = 0,29$).

Sifat jihatidan, bu shuni anglatadiki, bolalar turli vaziyatlarda — masalan, yangi odamlar bilan uchrashuv, topshiriq bajarish, javob berish yoki sinovli sharoitlarda — har xil darajada xavotirlanmaydi. Ularning stressga javobi barqaror va farq qilmaydigan ko'rinadi. Bolalarda xavotirlanishning shaxsiy yoki vaziyatli ko'rinishlarida sezilarli statistik farq yo'q. Bu ularning umumiy psixik barqarorligi yoki xavotirlanishga bo'lgan tendensiyasi o'rtacha darajada ekanligini bildiradi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirlanish darajasini aniqlashda faqat statistik mezonlarga asoslangan testlar bilan cheklanib qolmaslik zarur. Bolalarning psixologik holatini

to'liq baholash uchun proektiv metodlar, kuzatuvlar, suhbatlar va emotsional reaksiya asosidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xavotirlanishning bu yoshdagi bolalar uchun tabiiy holat ekanligi, uning vaqtinchalik va o'tkinchi bo'lishi mumkinligi ham inobatga olinishi kerak. Shu bois, ularni baholashda kompleks, chuqur va individual yondashuv qo'llanishi lozim. Ushbu natijaning asosiy sababi — bolalarda xavotirlanishning murakkab, barqaror bo'lmagan va ko'p omilli tabiatiga borib taqaladi. Bu yoshdagi bolalarda xavotirni faqat raqamli testlar orqali emas, balki chuqurroq psixologik yondashuv, individual kuzatuv va proektiv metodlar orqali tahlil qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(3). <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>.
2. Chen, F., Wang, Y., Zha, J., & Wu, X. (2018). Mothers' negative emotional expression and preschoolers' negative emotional regulation strategies in Beijing, China: The moderating effect of maternal educational attainment. Child Abuse & Neglect, 84, 74–81. <https://doi.org/10.1016/j.chiabu.2018.07.018>
3. Xasanova, S. G. (2024). Maktabgacha yosh davrida xavotirlanish holatining aqliy rivojlanishga ta'siri. Tadqiqotlar.uz, 31(3), 25–27. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2062>.
4. Alixanova, N. B. qizi. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda namoyon bo'ladigan xavotirli holatlarning psixologik xususiyatlari. Science and Education, 4(9), 312–314. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6292>.